

ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNDA FOYDALANISH TO'G'IRISIDA SHARTNOMA № 6

Kitob tuman

«28»_Yanvar_2022y.

Kitob tuman Elektr ta'minoti korxonasi, (tashkilot, korxonasi nomi) keyingi o'rinlarda, "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi B.Juraev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va Kitob tuman Davlat soliq inspeksiyasi (korxonasi, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Istemolchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi I.Sa'dullaev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMANING MOXIYATI

- 1.1. Ushbu shartnoma buyicha "Ta'minotchi" "Istemolchi"ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmok orkali elektr energiyasi yetkazib berishni uz zimmasiga oladi, "Istemolchi" esa mazkur shartnomaning 1- ilovasida belgilangan kuvvatdagi elektr energiyasini kabul kilib olish va ilova kilinadigan jadval asosida byudjetda ajratilgan mablaglar xisobidan xak tulashni uz zimmasiga oladi.
- 1.2. Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan uzaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xaklidir.
- 1.3. Foydalanadigan elektr energiyasining yillik xajmi 11400 kVt. tashkil kiladi.

II. TARAFLARNING XUKUK VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Istemolchi"ning xuquqlari:

- a) "Ta'minotchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berishni; (2-ilova)
- b) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma (3-ilovaga asosan) va standartlarda belgilangan miqdorda saqlashni;
- v) elektr energiyasi istemolning oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1- va 2-oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga xaklidir.
- g) elektr tarmoklarining bo'linish chegarasida zarur sifatga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilganda "Istemolchi" o'z xohishiga ko'ra; muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'lmagan xolda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni va xaqini tulashni rad etishga
- g) "Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga xaklidir.

2.2. "Istemolchi"ning majburiyatlari:

- a) Xisobga olish joyi elektr tarmoqlarining "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi bo'yicha bo'linish chegarasiga o'tkazilsin (istemolning xisobga olinishi bulinish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);
- b) elektr tarmoqlari, asbob uskunalarining tegishli texnik xolatini va xavfsizligini ta'minlash;
- v) elektr energiyasini istemol qilishning o'rnatilgan tartibiga rioya kilish xamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariya, yong'inlar, elektr energiyasini xisobga olish asboblaridagi nosozliklar xakida "Ta'minotchi"ga xabar berish;
- g) reaktiv energiya ishlab chikaruvchi uskunalarining ish rejimiga rioya kilish shartnomaning 4- ilovasiga muvofiq;
- d) istemol kilinadigan elektr energiyasini xisobga olish asboblari va ulardagi tamgalarning butligi va saklanishini ta'minlash;
- ye) ishlatilgan elektr energiyasi uchun tulovlarni uz vaktida amalga oshirish.

2.3. "Ta'minotchi"ning xuquqlari:

- a) "Istemolchi"dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli xaqni to'lashini va amaldagi konun xujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil xisob-kitoblarni amalga oshirishni;
- b) shartnomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni "Istemolchi"dan talab qilishga xaklidir;
- v) uning vakili tegishli amal kilish muddati bilan shaxsiy guvohnomasi mavjud bulganda elektr xisoblagichlarni ko'rib tekshiradi;
- g) ma'naviy jixatdan eskirgan elektr energiyasini induksion xisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan utkazmaydi xamda O'zR Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 512-sonli Karoriga muvofiq ularni zamonaviy elektron xisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi.

2.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

- a) konun xujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarini uz muddatda bajarilishini ta'minlash;
- b) «Istemolchi»ga shartnomada kursatigan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoklarining bulinish chegarasiga yetkazib berish;
- v) elektr tarmoklarining balans buyicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatgichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saklash 3-ilovaga muvofiq;

- g) elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzluksiz ("Elektr uskunalarining kurilma koidalari" 1.2.17-bandi asosida) yetkazib berilishini ta'minlash;
- d) elektr tarmoklarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bulgan uzilishlar tugrisida "Iste'molchi"ni kamida 3 sutka oldin o'gohlantirish;
- ye) elektr energiyasidan asossiz uzishga yul kuymaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashkari tuxtatilishi sabablarini xabar kilish;
- j) "Iste'molchi"ga elektr xisoblagichlarining amaldagi normativ xujjatlar talablariga muvofik almashtirish muddatlarini xabar kilish;
- jj) joriy etiladigan cheklashlar xakida cheklashning joriy etilish xajmi va vaktini kursatgan xolda 0,5 kun oldin xabar kilish;
- z) energiya tarifi uzgarganda urnatilgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.
- i) "Elektr energiyasidan foydalanish koidalari"ga (UzR Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 27 yanvardagi 32-sonli Karoriga 1-ilova), elektr energiyasi iste'molchilari va energiya ta'minoti tashkilotlari urtasida xisob-kitoblar tartibi tugrisida Nizomga (UzR Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-sonli Karoriga 2-ilova) rioya kilinsin.

III. ELEKTR ENERGIYASINI NARXI VA XISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning tuzilgan vaktdagi umumiy summasi 5130000 (Besh million bir yuz uttiz ming) so'mni tashkil etadi.

2021 yil jami	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Novabr	Dekabr
5130000	1 710 000	1 710 000	1 710 000	0	0	0	0	0	0	0	0	0

Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabaqalashtirilgan stavkada belgilanadi. (zarur bo'lmagani o'chiriladi) Shartnoma buyicha yetkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shartnoma tuzilgan davrda 1 kilovatt elektr energiya tarif narxi qo'shilgan qiymat solig'i bilan 450 so'mni tashkil etadi.

3.2. Navbatdagi oy uchun yetkazib berish nazarda tutilgan resurslar xajmining oldindan 100 foiz miqdorida o'ning 20-sanasi gacha xaq avans tariqasida to'lanadi, iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qolgan summa 30 kun mobaynida to'liq to'lab beriladi.

3.3. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun tulov pul utkazish yuli bilan xisob-kitob kilinadi. 1 (xisob-kitob qilish shakli ko'rsatiladi)

3.4. "Iste'molchi"ning aybi bilan shartnomada kursatilgan xajmlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol kilinganda tulangan avans mablaglari kaytarilmaydi, balki iste'mol kilingan elektr energiyasi uchun keyingi xisob-kitoblarda xisobga olinadi.

3.5. "Istemolchi" xar oyda bulinish chegaralarida urnatilgan xisobga olish priborlari kursatkichlarini yozib oladi. Ushbu kursatkichlar asosida o'lchov transformatorlari koeffitsientlarini xisobga olgan xolda iste'mol miqdori va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniklanadi.

Belgilangan shakldagi xisobot "Ta'minotchi"ga o'ning 25-sanasi gacha muddatda yuboriladi.

3.6. Xisob-kitob elektr xisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan takdirida elektr tarmogining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr xisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'kotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda xisob-kitob yo'li bilan aniklanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi. (6-ilovaga asosan)

3.7. Takdim etilgan belgilangan shakldagi xisobotga asosan "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga xisob-faktura yozib beradi.

Xar xil tarif guruxiga taaluqli bir necha ob'ektlarga ega iste'molchilar bilan xisob-kitoblar xar bir tarif guruxiga urnatilgan xisobga olish priborlari kursatkichlari buyicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga xar bir ob'ekt bo'yicha bilib ko'rsatilgan bitta xisob-faktura yozib beriladi.

Kisman (tulik xajmda emas) xak tulanganda, "Iste'molchi" tulov xujjatida kaysi tarif guruxlari buyicha tulov birinchi navbatda amalga oshirilayoganini kursatishi kerak. Aks xolda, "Ta'minotchi" tarif guruxlari buyicha karzdorlikni bartaraf etish navbatini mustakil belgilash xukukiga ega.

Elektr energiyasi iste'moli xakida xisobot takdim etilmaganda, elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli xajmi buyicha xisob-kitob oyiga keyinchalik amalda iste'mol uilingan elektr energiyasi buyicha kayta xisob-kitob kilgan xolda xisob-kitobni amalga oshiradi.

Ortikcha tulangan mablaglar kaytarilmasdan avans tulovi tarikasida xisobga olinadi.

3.8. "Iste'molchi" tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi kuzda tutilgan elektr energiyasi xajmi kiymatining 100 foizidan kam (oldindan tulov miqdori kursatilsin) bulmagan miqdorida oldindan tulov amalga oshirilganda elektr energiyasi xar oyda yotkazib beriladi. Kichik va urta biznes vakillari, kichik motorli, xususiy tadbikorlar elektr energiyasi kiymatining 100 foizi miqdorida oldindan tulov amalga oshirishlari kerak.

Yakuniy xisob-kitob esa 30 kun davomida (yakuniy xisob-kitob muddati kursatilsin, lekin 30 kundan ortmasin) amalga oshiriladi. "Iste'molchi" da elektr energiyasi uchun 30 kundan ortik (muddati yukorida kursatilgan) muddati utgan karzdorligi mavjud bulganda, avans tulovi tarikasida tulangan mablaglar muddati utgan karzdorlikni bartaraf etishga yunaltiriladi va avans tulovi tarikasida xisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" bir necha tarif guruxiga ega bulsa, u oldindan tulov xujjatida tarif guruxi buyicha elektr energiyasi summasi va yoki miqdorini kursatishi kerak. Aks xolda, "Ta'minotchi" tarif guruxlari buyicha karzdorlikni bartaraf etish navbatini mustakil belgilash xukukiga ega.

3.9. Uzil-kesil xisob kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan takdirda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga elektr energiya berishni to'xtatadi (shartnomaning 5.5 bandida ko'rsatilgan "Iste'molchi"lar bundan mustasno). Bir vaktning o'zida, "Ta'minotchi" elektr energiyasi yetkazib berish dalolatnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan xolda xizmat ko'rsatuvchi bank orkali xisobot oyida yetkazib berilgan elektr energiyasi summasiga aksept bilan to'lov talabnomasi beradi.

IV. ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLISH TARTIBI

4.1. Shartnomada kursatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va konun xujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar uz zimmlariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb xisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada kursatilgan muddatlar va xajmlarda mazkur shartnomada kursatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi 5-ilovaga muvofiq.

"Ta'minotchi" buyurtmanomalarni ruyxatdan utkazish daftarini yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini uzgartirishga xaklidir, bu xakda "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada kursatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bulishigacha kamida 10 kun oldin xabardor kiladi.

V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TO'XTATISH VA UZIB QO'YISH TARTIBI

5.1. Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni tuxtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yul kuyiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogoxlantirmasdan, biroq unta darhol xabar bergan xolda elektr energiyasi berishni vaktincha uzib kuyish, tuxtatish yoki cheklashga "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oddini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bulmaydigan choralarni kurish zarur bulgan xollarda yul kuyiladi.

5.3. Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;

shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi xajmi kiymatining oldindan 100 foizini tulamaganda;

xisob-kitob oyi tamom bulgandan keyin 30 kun mobaynida iste'mol kilingan elektr energiyasi uchun tulanmagan karzi mavjud bulganda;

"Iste'molchi" elektr energiyasi tarmogiga uzboshimchalik bilan ulanganda yoki kuvvat shartnomada kelishilgan mikdordan oshirilganda;

"Uzstandart" agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol kilinadigan energiyani xisobga olish priborlariga ega bulmaganda;

"Ta'minotchi"ning vakili soat 8.00 dan 20.00 gacha bulgan davr mobaynida xisoblash priborlarini kurishga asossiz kuyilmaganda,

"Ta'minotchi" elektr energiyasi berishni tuxtatib kuyish xukukiga ega buladi.

5.4. "Iste'molchi"da xisobga olish pribori bulmaganda;

xisobga olish pribori "Iste'molchi"ning aybi bilan shikastlanganda;

xisobga olish priborlarini ishga tushirish sxemasi uzgarganda yoki xisoblagichdan tashkari nagruzka ulanganda;

foydalanilgan elektr energiyasi uchun xak belgilangan muddatlarda tulanmaganda "Iste'molchi" 1 kun oldin ogoxlantirilib elektr energiyasi tarmogidan uzib kuyiladi;

5.5. Elektr energiyasini uzib kuyish texnogen va avariya okibatlariga olib kelishi mumkin bulgan, aloxida xavf va uzluksiz texnologiya jarayonga ega bulgan (Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1-noyabrdagi Elektr energiyasidan foydalanilganlik uchun xisob-kitob kilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida" gi 511-son Karor nizomining 1-ilbvasidagi ruyxatga kiritilgan) iste'molchilarning gulov muddati utgan karzlari vujudga kelgan takdirda xaki tulanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariya brongacha, tulik uzib kuyish esa fakat sud karoriga kura amalga oshirilishi mumkin. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" tomonidan imzolangan texnologik va avariya bronni dalolatnomalari shartiomaning uzviy kismi xisoblanadi. (7-ilovaga muvofiq)

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1. Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, 5 foizdan kup mikdorda elektr energiyasi yetkazib berilmagan xollarda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati utkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan kismining 0,5 foizi mikdorida penya tulaydi, biroq penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan elektr energiyasi kiymatining 50 foizidan ortik bulmasligi kerak. Penya tulanishi "Ta'minotchi"ni shartiomaning zarur darajada bajarilishidan va elektr energiyasi yetkazib berish kechiktirilganligi yoki tulik yetkazib berilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni koplashdan ozod kilmaydi.

6.2. Etkazib berilgan elektr energiyasi xakini uz vaktida tulamagani uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga utkazib yuborilgan xar bir kun uchun tulov summasining 0,1 foizi (maxsus tartibga kura elektr energiyasi beriladigan korxonalar uchun 0,2 foiz) mikdorida, ammo kechiktirilgan tulov summasining 50 foizidan ortik bulmagan mikdorda penya tulaydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga kura muljallanayotgan uzgartirishlargacha 10 kundan kech bulmagan muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi xajmlarining uzgartirilishi elektr energiyasini kam olish yoki ortikcha olish deb xisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshka masalalar Uzbekiston Respublikasining amaldagi konun xujjatlari bilan tartibga solinadi.

VII. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chikkan takdirda tomonlar, koidaga kura ularni sudgacha

xal etish yuzasidan tegishli choralarni kuradilar.

Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita xujalik sudiga murojaat qilishga xam xaklidir.

7.2.Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama uzgartirishga yul kuyilmaydi, konun xujjatlarida belgilangan xollar bundan mustasno.

VIII. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH

8.1. Tomonlardan biri shartnomani yengib bulmaydigan kuch, ya'ni favkulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bulmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshkini, va boshka tabiiy ofatlar) (fors-major) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bulmaydi.

IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib G'aznachilik bulinmasidan ruyxatdan utgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022yil "31" martgacha amal kiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga uzgartirishlar (kushimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.3. Mazkur shartnomaga xar kanday uzgartirish va kushimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil kilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xakikiy xisoblanadi.

9.4. Taraflar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan taudirda to'xtatiladi.

9.5. Tomonlar urtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan takdirda tuxtatiladi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga kura yoki boshka tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan takdirda, tomonlardan birining talabi buyicha sud tartibida bekor kilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, tomonlarning xar biriga bir nusxadan koldiriladi.

XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

«Ta'minotchi»

Kitob tuman Elektr ta'minoti korxonasi

Manzili: Kitob t. B.Ipak yuli kuchasi

tel/faks: 775-48-44

x/r: 22 636 000 600 177 786 352

bank nomi: "UzSanoat-Qurilish banki" OATB Qarshi fil.

MFO: 00854

INN: 200 600 494

IFUT: 38790

Raxbar:

M.U.



B. Juraev

(F.I.Sh.)

«Iste'molchi»

Kitob tuman Davlat soliq inspeksiyasi

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili Kitob shaxri Buyuk Ipak Yuli kuchasi 4-uy

tel/faks: 54-26-822

Sh.x.r:

10 001 086 010 232 7011 332 093 001

STIR: 200 693 834 IFUT: 97150

Uz. Res. Moliya Vazirligi Gaznachiligi

X/r: 23402000300100001010

Bank: Markaziy bank Toshkent sh. BBXKKM

MFO: 00014 STIR: 201122919

Raxbar:

M.O.



I. Sa'dullaev

(F.I.Sh.)

Ushbu 2022yil «28» yanvardagi № 6 sonli Kitob tuman Elektr ta'minoti korxonasi bilan Kitob tuman Davlat soliq inspeksiyasi urtasida tuzilgan shartnoma Uzbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1 sonli «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisida»gi Konuni talablariga mos keladi

Xukukshunos:

M. U



(F.I.Sh)

R. Yusupov

2022yil «28» yanvar

2021yil «28»_yanvardagi
 № 6 sonli shartnomaga
 1-sonli Ilova

Kitob tuman elektr tarmoklari korxonasi tomonidan 2022 yil 1-chorak davomida yetkazib beriladigan elektr energiyasi quvvati buyicha
SPESIFIKATSIYA

Oylar	Ulchov birligi	Mikdori	Narxi	Summasi
Yanvar	kVt	3800	450	1 710 000
Fevral	kVt	3800	450	1 710 000
Mart	kVt	3800	450	1 710 000
1-chorak jami		11400	450	5 130 000
Aprel	kVt	0	0	0
May	kVt	0	0	0
Iyun	kVt	0	0	0
2-chorak jami		0	0	0
Iyul	kVt	0	0	0
Avgust	kVt	0	0	0
Sentyabr	kVt	0	0	0
3-chorak jami		0	0	0
Oktyabr	kVt	0	0	0
Noyabr	kVt	0	0	0
Dekabr	kVt	0	0	0
4-chorak jami		0	0	0
Xammasi 2021yil	kVt	11400	450	5 130 000

Kitob elektr ta'minoti korxonasi
 boshlig'i:
 B. Jurdaev
 (imzo) (I.F.)
 M.U.

Kitob tuman Davlat soliq
 inspeksiyasi boshlig'i:
 I. Sa'dullaev
 (imzo) (I.F.)
 M.U.